

KORRUPSIYANING JAMOAT HAYOTIGA TA'SIRI

Alisher ARIPOV

Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

NDPI dotsenti, f.f.d. N.Safarova taqrizi ostida

THE IMPACT OF CORRUPTION ON PUBLIC LIFE

Aripov Alisher Sayfiddinovich

Independent researcher of Navaiy state pedagogical
institute

Doctor of philology, associate professor, Navoi state
pedagogical institute. Under the review of N.O. Safarova

ВЛИЯНИЕ КОРРУПЦИИ НА ОБЩЕСТВЕННУЮ ЖИЗНЬ

Алишер Сайфиддинович Арипов

Навоийская государственная педагогика

Независимый научный сотрудник института

НГПИ ф.ф.д. дот. под рецензию Н.О. Сафаровой



0009-0005-1409-6482

Annotatsiya: Maqolada korrupsiya, shu jumladan poraxo'rlik jinoyatlarining oqibatlar va zarari, bunday jinoyatlarga qarshi kurashishning o'ziga xos ahamiyati hamda yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, bu borada qonunchiligimizga kiritilayotgan yangiliklar va ularni yanada mustahkamlash uchun qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, poraxo'rlik, korrupsiyaga qarshi islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish.

Annotation: The article describes the consequences and harms of corruption, including bribery crimes, the specific importance of combating such crimes, as well as the work carried out in the field of combating corruption in our country, the innovations introduced in the legislation in this regard and proposals for the implementation of additional measures for their further strengthening.

Key words: corruption, bribery, anti-corruption reforms, improvement of anti-corruption system.

Аннотация: В статье описаны последствия и вред коррупции, в том числе взяточничества, важность борьбы с такими преступлениями и работа, проводимая в борьбе с коррупцией в нашей стране, нововведения в нашем законодательстве и предложения по дополнительным мерам по их дальнейшему усилению.

Ключевые слова: коррупция, взяточничество, антикоррупционные реформы, совершенствование системы противодействия коррупции.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning aksariyatining mazmuni jamiyatda halollik, adolat va qonuniylikni ta'minlashdan iborat. Korrupsiya kabi illatdan voz kechish, inson tafakkurini bunday balodan tozalash

juda ham murakkab jarayon bo'lib, poraga nisbatan murosasiz kayfiyatni uyg'otish, metin iroda bilan kurashishni talab etadi. Insonning bolalik davridan boshlab, ulg'ayib esini taniguniga qadar o'rganganlari butun umrga xotirasida muxrlanib qoladi. Bir tomondan yoshlikda olingan bilim, inson

hayotidagi yo'llarda ravon yurishi uchun eng kerakli omil bo'ladi.

Adliya vazirligi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda qurilish, sog'liqni saqlash, oliy ta'lim va davlat xaridlari sohalarini tartibga soluvchi 226 ta qonunchilik hujjatlari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilganligi va natijasiga ko'ra ushbu hujjatlarning 75 tasida 302 ta korrupsiyaviy omillar aniqlanganligi yuqoridagi fikrimizning yaqqol isboti hisoblanadi.¹

Bugungi kunga qadar qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni yoki kelgusida amalda tatbiq etilishi mumkin bo'lgan hujjatlarning loyihalarini to'liq korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish, korrupsiyaviy omillar aniqlangan hujjatlardan voz kechish, bir-birini takrorlovchi hujjatlarni birlashtirish, byurokratik funksiyalarni umuman yo'q qilish, mamlakatda barcha hujjatlar aylanmasi tizimini qog'ozbozlikdan voz kechib, to'laqonli elektron tartibga o'tish zarurati tug'ilmoqda.

Fikrimizcha, elektron hujjatlar aylanmasi xavfsiligini ta'minlovchi va tartibga soluvchi kiberxavfsiz dasturni yo'lga qo'yish zarur. Hujjatlarni imzolashda, tasdiqlashdagi inson omilidan xoli tizimni yo'lga qo'ya olsak, korrupsion holatlarni oldini olishga qaratilgan yana bir qadam bo'ladi. Afzallik tomonlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qog'oz uchun milliardlab sarflanadigan xarajatlar qisqaradi, navbat kutishlar yo'qoladi, poraxo'rlikka moyil bo'lgan shaxslarga turli ko'rinishdagi iltimoslar qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, elektron tartibdagi hujjatlarni tahlil qilish, ulardagi korrupsiyaviy omillarni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf qilish oson bo'ladi hamda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik yanada kuchliroq ta'minlanadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunga qadar yurtimizda korrupsiyani oldini olish borasida samarali targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda, poraxo'rlik yomon illat ekanligi deyarli har qadamda aytiladi, biroq amalga oshirilgan ishlarga qaramasdan korrupsiya bilan bog'liq holatlarga yo'l qo'yilayotgani sir emas. Endilikda bunday holatlarni oldini olishga qaratilgan ish

uslubini o'zgartirish, zamon bilan hamnafas qadam bosishimiz kerak deb hisoblaymiz.

Quyidagi taklif va tavsiyalarni amalda qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- **har bir rahbarni yoki rahbarlik lavozimiga tayinlanayotgan shaxslarni maxsus psixologik testdan o'tkazish.** Ushbu test orqali nomzodning poraxo'rlikka moyillik darajasi tahlil qilinib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mutaxassislari tomonidan tegishli tavsiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan xulosa ola bilgan nomzodgina, rahbarlik lavozimlarini egallashi mumkin bo'lgan tizimni joriy etish;

- **korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinmasligi shart.** Bundan tashqari, davlat fuqaroligi xizmatiga aynan qaysi lavozimlar kirishi to'g'risidagi ro'yxatni o'zida mujassamlashtirgan **qonun loyihasini tayyorlab, yurtimizda joriy qilish;**

- qonun bilan davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, huquq, majburiyatlari, ularni ishga olishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rilganligi hamda **lavozimga tayinlash tartibi, lavozimlarga tayinlashda shaffoflikka amal qilish kabilar mustahkamlanishi joiz;**

- mulkiy huquqlarni ishonchli daxlsizligini yanada mustahkamlash va xususiy mulkka egalik qilishda davlat organlari aralashuviga umuman yo'l qo'ymaslikni kafolatlashni kuchaytirish shart;

- shuningdek, **shaxsiy ID-kartalar chipiga** karta egasining daromadlari, faoliyat bilan shug'ullangan davri, mehnatda rag'batlantirilganligi yoki salbiy harakatlari uchun jazolanganligi, nomida bo'lgan barcha mol-mulki, soliq yoki kredit qarzdorliklari va boshqa qarzdorliklari, unga nisbatan sudlarda ko'rilgan ishlar natijalari, kasbi yoki ma'lumoti, o'qish yoki ish joyi, nikohi, yaqin qarindoshlari, tadbirkorlik ishlari, sudlanganligi, ma'muriy javobgarlikka tortilganligi, intizomiy chora ko'rilganligi, chet el fuqaroligiga ega ekanligi, tarjimai holi va shaxs to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar qo'shib, **shaxsni identifikatsiyalashning yagona mexanizmini to'liq joriy etish** va ID-karta xotirasida shaxsni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5263-son Qarori.

tug'ilganidan boshlab amalga oshirilgan jarayonlar jamlangan **"Shaxs tarixi"** yoki **"Fuqaro tarixi"** dasturini amalda tatbiq etish zarur va davlat xizmatlari sohasida fuqaro haqida to'liq ma'lumotlarni jamlab, ortiqcha sarsongarchiliklarsiz fuqaro to'g'risida yagona ma'lumotnoma taqdim qila oladigan **"Fuqaro tarixi"** xizmatini joriy etgan holda amalga oshirish lozim. **Shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni integratsiya qilib, hisobga olish tizimini yanada qulay qilish kerak;**

- sud organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash va aholining korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida **barcha sud jarayonlarini jonli ravishda doimiy efirga uzatuvchi yangi televizion kanal tashkil qilib, barcha ochiq sud jarayonlarini uzluksiz namoyish qilib borish lozim.**

- jamiyatda umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida **korrupsiyaga qarshi** mavzularni yanada kuchaytirilishi, imkoni bo'lsa, **fan sifatida o'tilishi**, bu orqali yoshlar ongida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik tuyg'usini shakllantirilishi, mamlakatimizning kelajakdagi taraqqiyotiga keskin ijobiy burilish yasash zarur.

Zero, korrupsiyaning nafaqat oqibatlarini, balki sabablarini oldindan bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan amaliy choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish ² kelajakda o'z samarasini bermay qo'ymaydi, bizdan keyingi avlodga halollik va adolatga asoslangan sog'lom turmush-tarzini qoldirishimizga, yoshlar ongida yaxshi bilan yomonni, oq bilan qorani farqlay biladigan irodaviy kuchni hosil bo'lishiga sabab bo'ladi, sinov sifatida berilgan omonat umrni to'g'ri yashashlariga va natijada yaxshi kunlarni ko'rishlariga muhim omil bo'ladi. Har bir inson o'zidan iz qoldirishni xohlaydi, bizdan kelajak avlodga qoladigan yagona esdalik bu halollikka asoslangan yaxshiliklar bo'lishi mumkin...

Xalqimiz qanchalar ko'p "halollik vaksinasi bilan emlansa", o'zini yomon illatlardan tozalab,

yaxshi amallar bilan isloh qilsa, jamiyatimiz hayoti shunchalar tez taraqqiyotga erishadi, insonlar o'zligini anglash sari odimlab boraveradi...

Foydalanilgan manbalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi **PQ-81-son Qarori.**

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi **PQ-5263-son Qarori.**

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-6257-son Farmoni.**

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi **PQ-5177-son Qarori.**

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi **PF-60-sonli Farmoni.**

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrdagi "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-6127-son Farmoni.**

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-5729-son Farmoni.**

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.